



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 1 (03)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil***

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**1**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

MUNDARIJA

<b>Tursunov A.M.</b> O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
<b>Abdulazizov A.A.</b> Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
<b>Jurayev D.A.</b> Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga taъsir etuvchi omillar.....	15
<b>Suyarov Sh.S.</b> Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
<b>Кариева Л.С.</b> Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
<b>Axtamov A.U.</b> Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka ta’siri xususida.....	25
<b>Гафуров А.Б.</b> Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
<b>Абиткариев А.М.</b> Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
<b>Abdullayev D.G’.</b> Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
<b>Abdullayev M.G’.</b> Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
<b>Isakov A.Y.</b> Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
<b>Ashurova G.N.</b> Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
<b>Yo‘ldosheva M.F.</b> O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
<b>Қулматов А.А.</b> Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.....	61
<b>Babayev A.N.</b> Yoshlar bandligini ta’minlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
<b>Sharipov H.A.</b> Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
<b>Турдиева Я.</b> Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
<b>Vaxidov A.K.</b> Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
<b>Gaymatova D.G’.</b> Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
<b>Pardayev E.E.</b> Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
<b>Ibragimova S.A., Muradov Sh.D.</b> Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
<b>Адилов Б.Б.</b> Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
<b>Yoqubova Z.T.</b> Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashning konseptual asoslari.....	101
<b>Saidaxmedova N.I., Aripov A.S.</b> Oliy ta’lim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
<b>Abduvoyeva X.Sh.</b> O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga ta’sirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
<b>Умаров А.А.</b> Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибadorligini oshirish.....	116
<b>Shoraximova Z.N.</b> «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	120
<b>Умурзакова З.С.</b> Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш yo‘llari.....	126
<b>Karimov X.O.</b> Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

<b>Aхунов М.А.</b> Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	<b>134</b>
<b>Ахмаджонов С.С.</b> Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	<b>138</b>
<b>Abdullayeva Sh.А.</b> Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralarini boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	<b>142</b>
<b>Дусанов С.М.</b> Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	<b>146</b>
<b>Мамаражобов А.С.</b> Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	<b>151</b>
<b>Nigmatova D.Z., Amanov E.G’.</b> Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalarida samaradorligiga ta’siri.....	<b>157</b>
<b>Ikromjonova M.U.</b> To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	<b>160</b>
<b>Madaminjonov A.O.</b> To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	<b>164</b>
<b>Jamoliddinova S.S.</b> Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	<b>168</b>
<b>Akbaraliyev A.E.</b> O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	<b>173</b>
<b>Эрматова С.И.</b> Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	<b>178</b>
<b>Maxsudov Sh.S.</b> To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	<b>181</b>
<b>Boyev X.I., Adilov B.B.</b> Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	<b>186</b>
<b>Raxmonova N.A.</b> Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	<b>190</b>
<b>Якубова Д.М.</b> Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	<b>194</b>
<b>Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y.</b> Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	<b>198</b>
<b>Matyoqubova D.O.</b> Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	<b>202</b>
<b>Rahmatullayeva F.</b> Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	<b>206</b>
<b>Mamajonov L.A.</b> Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	<b>209</b>
<b>Давруков Ф.У.</b> Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	<b>213</b>
<b>Убайдуллаева Н.Р.</b> Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	<b>222</b>
<b>Abdullayev A.A.</b> Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	<b>227</b>
<b>Alimov O.N.</b> O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	<b>230</b>
<b>Sultonov B.M.</b> Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	<b>235</b>
<b>Mamajonova N.A.</b> Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	<b>239</b>
<b>Sanaqulova A.</b> O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	<b>243</b>
<b>Nazarov N.N.</b> Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	<b>247</b>
<b>Toshpulatov A.M.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	<b>251</b>
<b>Sanaqulova A., Ochilova M.</b> Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	<b>254</b>
<b>Umarov I.Y.</b> Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	<b>257</b>

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Портер М. Конкурентное преимущество: как достичь высокого результата. – М.: Альпина Паблишер, 2019.
2. Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 2018.
3. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. – М.: ВШЭ, 2020.
4. Каримов Н. Электротехника саноатида ишлаб чиқариш самарадорлиги. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2021.
5. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Саноат статистикаси маълумотлари. – Тошкент, 2023.

**UDK:338.45**

**KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA RESURS SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH**

**ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РЕСУРСНОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ГОРНОДОБЫВАЮЩЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**EFFICIENT USE OF RESOURCE POTENTIAL AT MINING INDUSTRY ENTERPRISES**

**Suyarov Shaxzod Salim o‘g‘li**

Toshkent davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari ilmiy va amaliy jihatdan kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda resurs salohiyati tushunchasining iqtisodiy mazmuni, uning tarkibiy elementlari hamda sanoat korxonalari faoliyatidagi o‘rni ochib berilgan. Shuningdek, resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar aniqlanib, ularni boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari konchilik sanoati korxonalarida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va raqobatbardoshlikni oshirishda resurs salohiyatini kompleks boshqarish zarurligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar.** konchilik sanoati, resurs salohiyati, iqtisodiy samaradorlik, sanoat iqtisodiyoti, ishlab chiqarish resurslari, moliyaviy resurslar, mehnat resurslari, investitsiyalar, raqobatbardoshlik.

В данной статье вопросы повышения экономической эффективности на предприятиях горнодобывающей промышленности на основе эффективного использования ресурсного потенциала проанализированы комплексно с научной и практической точек зрения. В исследовании раскрыто экономическое содержание понятия ресурсного потенциала, его структурные элементы, а также роль в деятельности промышленных предприятий. Кроме того, выявлены внутренние и внешние факторы, влияющие на повышение эффективности использования ресурсного потенциала, и обоснованы экономические механизмы их управления. Результаты исследования показывают необходимость комплексного управления ресурсным потенциалом для обеспечения устойчивого экономического роста, оптимизации производственных затрат и повышения конкурентоспособности предприятий горнодобывающей промышленности.

**Ключевые слова:** горнодобывающая промышленность, ресурсный потенциал, экономическая эффективность, экономика промышленности, производственные ресурсы, финансовые ресурсы, трудовые ресурсы, инвестиции, конкурентоспособность.

This article provides a comprehensive scientific and practical analysis of issues related to increasing economic efficiency at mining industry enterprises through the efficient use of resource potential. The study reveals the economic essence of the concept of resource potential, its structural components, as well as its role in the activities of industrial enterprises. In addition, internal and external factors influencing the improvement of resource potential utilization efficiency are identified, and economic mechanisms for their management are substantiated. The research results demonstrate the necessity of integrated management of resource potential to ensure sustainable economic growth, optimize production costs, and enhance the competitiveness of mining industry enterprises.

**Keywords:** mining industry, resource potential, economic efficiency, industrial economics, production resources, financial resources, labor resources, investments, competitiveness.

Bugungi globallashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarining barqaror faoliyat yuritishi va iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. Ayniqsa, konchilik sanoati kabi kapital sig‘imi yuqori, texnologik jihatdan murakkab va tabiiy resurslarga bevosita bog‘liq tarmoqlarda resurslardan oqilona va samarali foydalanish iqtisodiy natijadorlikni belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida konchilik sanoati strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu tarmoq sanoat ishlab chiqarish hajmi, eksport salohiyati va davlat byudjeti daromadlarida muhim ulushni egallaydi. Shu nuqtai nazardan, konchilik sanoati korxonalarida mavjud resurs salohiyatidan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Resurs salohiyati sanoat korxonasining mavjud va potensial imkoniyatlarini ifodalovchi murakkab iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish va iqtisodiy natijalarga erishish uchun zarur bo‘lgan barcha resurslar majmuini qamrab oladi. Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyati quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi:

- tabiiy resurslar (yer osti boyliklari, xomashyo zaxiralari);
- ishlab chiqarish resurslari (asosiy fondlar, texnologik uskunalari);
- mehnat resurslari (ishchi kuchi, kadrlar salohiyati);
- moliyaviy resurslar (o‘z va jalb qilingan mablag‘lar);
- investitsion va innovatsion resurslar.

Mazkur resurslarning uyg‘un va mutanosib rivojlanishi konchilik sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini belgilaydi.

Zamonaviy sanoat iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining barqaror rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligini ta‘minlash, avvalo, mavjud resurs salohiyatidan foydalanish darajasi bilan belgilanadi. Ayniqsa, konchilik sanoati korxonalarida uchun resurs salohiyati masalasi alohida dolzarblik kasb etadi, chunki mazkur tarmoq yuqori kapital sig‘imi, uzoq investitsion davr, tabiiy resurslarga bog‘liqlik hamda murakkab texnologik jarayonlar bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda “resurs salohiyati” tushunchasi ko‘p qirrali kategoriya sifatida talqin qilinadi. Umumiy ma‘noda, resurs salohiyati korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish, iqtisodiy natijalarga erishish va strategik maqsadlarini ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan barcha resurslar va imkoniyatlar majmuini ifodalaydi. Konchilik sanoati korxonalarida ushbu tushuncha nafaqat mavjud resurslar hajmini, balki ularni jalb etish, taqsimlash va samarali boshqarish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi.

Konchilik sanoatiga xos jihat shundan iboratki, bu tarmoqda resurs salohiyatining asosiy tayanchi tabiiy resurslar hisoblanadi. Yer osti boyliklari, foydali qazilmalar zaxiralari va ularning sifati ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiy samaradorlikning dastlabki shartini belgilab beradi. Biroq zamonaviy sharoitda faqat tabiiy resurslarga tayanish yetarli emas. Ularni qazib olish va qayta ishlash jarayonlarida ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat va innovatsion resurslarning o‘zaro uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish resurslari tarkibiga asosiy fondlar, texnologik uskunalari, ishlab chiqarish infratuzilmasi va energiya ta‘minoti kiradi. Konchilik sanoatida asosiy fondlarning yuqori eskirishi va texnologik yangilanishga bo‘lgan ehtiyoj resurs salohiyatidan foydalanish

samaradorligini bevosita belgilaydi. Shu bois, ishlab chiqarish resurslarining texnik holati, quvvatlardan foydalanish darajasi va modernizatsiya jarayonlari iqtisodiy samaradorlikka sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Mehnat resurslari resurs salohiyatining muhim tarkibiy qismi bo’lib, u nafaqat ishchi kuchi soni, balki kadrlarning malaka darajasi, tajribasi, mehnat unumdorligi va innovatsion faolligini ham qamrab oladi. Konchilik sanoatida texnologik jarayonlarning murakkabligi yuqori malakali mutaxassislar va muhandis-texnik xodimlarga bo’lgan talabni oshiradi. Shu sababli, mehnat resurslarini samarali boshqarish resurs salohiyatidan foydalanishning muhim sharti hisoblanadi.

Moliyaviy resurslar korxonaning ishlab chiqarish va investitsion faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini belgilaydi. O’z mablag’lari, jalb qilingan kreditlar va investitsiyalar konchilik sanoati korxonalarining resurs salohiyatini kengaytirish va yangilashda muhim rol o’ynaydi. Moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, rentabellikni oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, investitsion va innovatsion resurslar resurs salohiyatining istiqbolli tarkibiy qismi sifatida namoyon bo’ladi. Yangi texnologiyalarni joriy etish, raqamli yechimlardan foydalanish va energiya tejamkor uskunalarni qo’llash konchilik sanoati korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Bu jarayonlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda ekologik yuklamani kamaytirishga ham xizmat qiladi.

Umuman olganda, konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyati faqat resurslar yig’indisi emas, balki ularni strategik boshqarish, o’zaro muvofiqlashtirish va iqtisodiy natijalarga yo’naltirish qobiliyatini ifodalovchi murakkab tizim sifatida namoyon bo’ladi. Shu sababli, resurs salohiyatining iqtisodiy mohiyatini chuqur tahlil qilish va uni samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish konchilik sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Resurs salohiyati va iqtisodiy samaradorlik o’rtasidagi bog’liqlik. Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish jarayonida sarflangan resurslar va erishilgan natijalar o’rtasidagi nisbat orqali aniqlanadi. Konchilik sanoatida yuqori kapital sig’imi, uzoq investitsiya davri va texnologik murakkablik sababli resurslardan foydalanish samaradorligi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Resurs salohiyatidan samarali foydalanish:

- ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish;
- mehnat unumdorligini oshirish;
- asosiy fondlardan foydalanish darajasini yaxshilash;
- moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash;
- investitsion jozibadorlikni oshirish имкониини beradi.

Navoiy KMK faoliyatida resurs salohiyatidan foydalanish holati. Navoiy kon-metallurgiya kombinati O‘zbekistonning eng yirik sanoat korxonalaridan biri bo’lib, rangli va nodir metallar qazib olish va qayta ishlashga ixtisoslashgan. Korxonada faoliyatida tabiiy resurslar yetakchi o‘rin tutsa-da, ishlab chiqarish, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi ham muhim ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda Navoiy KMKda:

- ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish;
- texnologik jarayonlarni optimallashtirish;
- kadrlar malakasini oshirish;
- investitsion loyihalarni amalga oshirish yo‘nalishlarida izchil ishlar olib borilmoqda.

Biroq, resurslardan foydalanishda mavjud ichki zahiralarni aniqlash va ularni samarali boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati сақланиб қолмоқда.

Resurs salohiyatidan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari: Navoiy KMKda resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlar ustuvor hisoblanadi:

- ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish;
- resurslardan foydalanish samaradorligini baholovchi integrallashgan ko‘rsatkichlarni joriy etish;
- mehnat resurslarini boshqarishda motivatsion mexanizmlarni kuchaytirish;
- moliyaviy resurslardan foydalanishni optimallashtirish;

- innovatsion va energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish.

Konchilik sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish resurs salohiyatidan samarali foydalanish bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, resurslarni alohida emas, balki yagona tizim sifatida boshqarish konchilik sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishini ta‘minlash imkonini beradi. Navoiy KMK misolida olib borilgan tahlillar resurs salohiyatini kompleks boshqarish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim sharti ekanligini tasdiqlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Porter M. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. New York: Free Press, 2018.
2. Schumpeter J. *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press, 2017.
3. Castells M. *The Rise of the Network Society*. Wiley-Blackwell, 2020.
4. Karimov N., Raximov A. Konchilik sanoatida resurslardan foydalanish samaradorligi // *Iqtisodiyot va innovatsiyalar*. – 2022. – №4.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. *Sanoat statistikasi ma‘lumotlari*. – Toshkent, 2023.
6. Navoiy kon-metallurgiya kombinati. *Yillik hisobotlar*. – Navoiy, 2019–2023.

УДК: 338.23

**ЭНЕРГЕТИКА САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ  
САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ**

**ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ПРЕДПРИЯТИЙ  
ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ**

**WAYS TO IMPROVE THE PRODUCTION EFFICIENCY OF ENERGY INDUSTRY  
ENTERPRISES**

**Кариева Л.С.** ТошДТУ

Саноат иқтисодиёти ва менежменти кафедраси доценти

**Аннотация**

Мақолада Ўзбекистон энергетика тизимининг йирик иссиқлик электр станцияларидан бири — Навоий ИЭСда амалга оширилаётган модернизация, кувватларни янгилаш ва энергия тежовчи технологияларни жорий этиш орқали ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш жараёнлари таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** энергетика самарадорлиги, Навоий ИЭС, комбинацияланган цикл (ССГТ), иссиқлик электр станцияси, кувват юки, модернизация, энергия тежами, ёқилги сарфи.

В статье анализируются процессы модернизации, обновления мощностей и повышения эффективности производства за счет внедрения энергосберегающих технологий на одной из крупнейших тепловых электростанций энергетической системы Узбекистана - Навоийской ТЭС.

**Ключевые слова:** энергоэффективность, Навоийская ТЭС, комбинированный цикл (ССГТ), ТЭС, мощность, модернизация, энергосбережение, расход топлива.

The article analyzes the processes of modernization, renewal of capacities, and increasing production efficiency through the introduction of energy-saving technologies at one of the largest thermal power plants of the energy system of Uzbekistan - Navoi TPP.